

## IQTISODIY SUDLAR KELAJAKDA TADBIRKORLAR MANFAATLARINI MUSTAHKAM HIMOYA QILADI!

**Xudoyberdiyeva Moxichehra Alisher qizi**

Buxoro viloyati yuridik texnikumi Sud huquqiy faoliyati 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6983201>

**Annotatsiya.** Prezident tomonidan 12.04.2022 yildagi to'lovga qobilyatsizlik to'g'risidagi O'RQ 763-sonli qonunini imzoladi. Ushbu qonun 14 bob 249 moddadan iborat. Qonun 2022-yil 13-apreldan kuchga kiradi uning oxirgi bobi esa 2023-yil 1-yanvardan, qonun yuridik va jismoniy shaxslarning shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlarning to'lovga qobilyatsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solidi.

**Kalit so'zlar:** Sudyalar oliy kengashi, iqtisodiy ish, kassasiya, protesti, apellyasiya, oliy sud, to'lovga qobilyatsizlik.

## ХОЗЯЙСТВЕННЫЕ СУДЫ И ВПРЕДЬ БУДУТ НАДЕЖНО ЗАЩИЩАТЬ ИНТЕРЕСЫ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ!

**Аннотация.** Президент подписал Закон Республики Узбекистан «О неплатежеспособности» от 12 апреля 2022 года № 763. Данный Закон состоит из 14 глав и 249 статей. Закон вступит в силу с 13 апреля 2022 года, а его последняя глава вступит в силу с 1 января 2023 года. Закон будет регулировать отношения в сфере неплатежеспособности юридических и физических лиц, а также индивидуальных предпринимателей.

**Ключевые слова:** Высший совет судей, хозяйственное дело, кассация, протест, апелляционная жалоба, верховный суд, несостоятельность.

## ECONOMIC COURTS WILL CONTINUE TO RELIABLY PROTECT THE INTERESTS OF ENTREPRENEURS!

**Abstract.** The President signed the Law of the Republic of Uzbekistan "On Insolvency" dated April 12, 2022 No. 763. This Law consists of 14 chapters and 249 articles. The law will enter into force on April 13, 2022, and its last chapter will come into force on January 1, 2023. The law will regulate relations in the sphere of insolvency of legal entities and individuals, as well as individual entrepreneurs.

**Keywords:** Supreme Council of Judges, business case, cassation, protest, appeal, Supreme Court, insolvency.

## KIRISH

Prezidentning 21.02.2017-yildagi "O'zbekiston respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyatini samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" farmoni qabul qilindi. **Iqtisodiy ish**-ishda ishtirok etuvchi shaxslar va iqtisodiy sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari tomonidan sudga taqdim etilgan hujjatlar, ishni ko'rish jarayonida sud tomonidan talab qilib olingan hujjatlar, shuningdek qog'ozda rasmiylashtirilgan sud hujjatlari va boshqa hujjatlar asosida shakllantiriladi. Mazkur qonun loyihasi prezidentning "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi". 2017-yil 21-fevraldagi PF 4966-son farmoni ijrosini o'z vaqtida taminlash maqsadida oliy xo'jalik sudi tomonida ishlab chiqildi hamda belgilanga tartibda Oliy sud Bosh prokuratura, Adliya, Iqtisodiy moliya va axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan kelishildi.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Aytish joizki, prezident farmonining 8-bandida 2017-yil 1-iundan O'zbekiston respublikasi oliy sudi va oliy xo'jalik sudini birlashtirish, fuqarolik, jinoiy, mamuriy va iqtisodiy sud ish yurituv sohasidagi sud hikimyatining yagona oliy organi O'zbekiston respublika oliy sudini tashkil etish belgilandi.

Bundan tashqari zamonaviy talablardan kelib chiqib shuningdek tadbirkorlik subyektlarini huquqlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qayd etilgan farmon bilan Qaraqalpoqiston respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari tegishli **Iqtisodiy sudlar** etib o'zgartirildi. Bunda mamlakatning iqtisodiy salohiyati va tadbirkorlik subyektlarining ortib borishini hisobga olgan holda ishlarni birinchi instansiyada ko'rishga vakolatli sudlari tashkil etildi.

Shu boizdan loyiha XPK ning qator moddalariga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutadi.

### TADQIQOT NATIJALARI

Kodeksning 1-moddasidagi "Xo'jalik sudi" degan so'zlar "Iqtisodiy sud" degan so'zlar bilan allmashtirildi. Bundan tashqari, mazkur modda xo'jalik sudlarining ushbu kodeksda belgillangan barcha vakolatlari iqtisodiy sudlar tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan norma bilan to'ldirildi.

Shuningdek kodeksning matnida "**O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi**" degan so'zlar "**O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi**" degan so'zlar bilan almashtirildi.

Kodeksning 23-moddasi o'zaro bog'liq bo'lib, bazilari iqtisodiy sudga boshqalari esa Ma'muriy sudga taluqli bo'lgan bir necha talab birlashtirilgan taqdirda hamma talablar iqtisodiy sudga ko'rilishi kerakligi belgilovchi qism bilan to'ldirilmoqda.

Kodeks apellyatsiya (protestini berish tartibini belgilovchi yangi 157<sup>1</sup>- moddasi bilan to'ldirilmoqda. Unda apellyatsiya shikoyati (protesti) ko'ruvchi sudga hal qiluv qarorini qabul qilgan sud orqali berilishi ko'rsatilgan. O'z navbatida hal qiluv qarorini sud orqali berilishi ko'rsatilgan.

Shikoyat (protest) kelib tushgan kundan e'tiboran 15 kunlik muddatda uni apellyatsiya shikoyati (protest) ko'ruvchi sudga ish bilan birga yuborilishi shart.

Kodeksning 157- moddasida apellyatsiya shikoyati (protest)ni ko'rsatuvchi sudlar aniqlashtirmoqda. Unda apellyatsiya shikoyati (protest)ni Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlari tomonidan 1-instansiyadan qabul qilingan hal qiluv qarori ustidan berilgan apellyatsiya shikoyati (protest)ni 1- instansiyada hal qiluv qarorini qabul qilgan sud ko'rish belgilanmoqda.

Kodeksning 174- moddasida hal qiluv qarorining qonuniyligini kassatsiya tartibida tekshiruvchi sudlar ko'rsatilmoqda. Unda Iqtisodiy sudlar tomonidan 1- instansiyada qabul qilingan hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini ko'rishni Qaraqalpoqiston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar Iqtisodiy sudlari vakolatlariga o'tkazish taklif etilmoqda.

Zamonaviy jarayon va talablarini, sud amalyotining sinalgan tamoil va yondashuvlarini shuningdek boshqa davlatlarning iqtisodiy sohadagi sud ish yurituv tajribasini hisobga olgan holda iqtisodiy sudlar faoliyatini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va boshqa manfaatdor tashkilotlarga tanqidiy tahlil qilinmoqda.

### MUHOKAMA

Qonun yuridik va jismoniy shaxslarning shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlarni to'lovga qobilyatsizligi sohasidagi munosabatlarini tartibga solidi.

Ushbu MHH quydagi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Bankirot to'lovga qobilyatsizlik qastdan to'lovga qobilyatsizlik, kelishuv bitmi, kreditorlar, bir turdagi kreditorlar va boshqalar.

Qonun bilan **To'lovga qobilyatsizlik** atamaları hamda To'lovga qobilyatsizlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqadigan organ belgilangan. Bunday ish sud tomonidan sudga murojat qilish huquqiga ega bo'lgan shaxsning (organning) arizasi asosida qarzdor yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi, shuningdek qarzdor jismoniy shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning yashash joyidagi sud tomonidan **Iqtisodiy protsesual** kodeksda nazarda tutilgan qoidalar bo'icha ko'rib chiqiladi. Qonunning normalari quyidagilarni belgilaydi. To'lovga qobilyatsizlik to'g'risidagi ishni yuritish ishtirokchilarning kreditorlar yig'ilishining jamoat birlashmalarining sud boshqaruvchilarining huquqlari majburiyatlari va javobgarligi to'lovga qobilyatsizlik tartib tamoillari. to'lovga qobilyatsizlik to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rib chiqish tartibi to'lovga qobilyatsizlik to'g'risidagi ishda qarzdor rahbarning va boshqa shaxslarning javobgarligi kelishuv bitmini tuzish tartibi. Qarzdor yuridik shaxslarning ayrim toifalari to'lovga qobilyatsizligining o'ziga xos xususiyatlari.

Jismoniy shaxsning to'lovga qobilyatsizligi hujjat qonun hujjatlarining milliy bazasi elon qilingan va 13. 04. 2022 yildan kuchga kirgan.

#### **XULOSA**

Òzbekiston Respublikasining Kanstitutsiyasida inson va fuqorolarning asosiy huquq va erkinliklari, burchlari kanstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlangan. shular asosida amalda qator qonun hujjatlari qabul qilinganligi malum . Ushbu qonun hujjatlaring maqsadi yuqorida aytilgan kanstitutsiyaviy normalarni amalyotga tatbiq etishdan iborat.

Òzbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyevning tashabussi bilan 2017 yil 31-mayda "òzbekiston Respublikasining Kanstitutsiyaviy sudi to'g'risi"dagi Kanstitutsiyaning qonun qabul qilindi. Darhaqiqat iqtisodiy sudlar tadbirkorlar manfaatlarini himoya qiladi. Chunki, iqtisodiy qarzdorlik, iqtisodiy muammolarni hal qiladi. Barcha fuqarolar sudlarga ishonishlari kerak. Chunki ular inson maanfaqlarini himoya qiladi!

#### **REFERENCES**

1. "Òzbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy sudlar togrisidagi qonun".
2. Òzbekiston Respublikasinig 2018 yil 8 yanvardagi "Mamuriy tartib-tamoillari to'g'risida"gi. ÒRQ-457 sonli qonuni.